

O'zbek haykaltaroshligidagi ayol obrazi talqini

Azamat Kamalovich Xatamov

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek haykaltaroshligidagi ayol obrazi talqini, O'zbekiston monumental va dastgohli haykaltaroshligi, O'zbekiston ayollarining umumlashgan obrazi haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: o'zbek haykaltaroshligi, ayol obrazi, milliy mafkura, geometrik xarakter

Interpretation of the image of a woman in Uzbek sculpture

Azamat Kamalovich Khatamov

National Institute of Fine Arts and Design named after Kamoliddin Behzod

Abstract: This article describes in detail the interpretation of the female image in Uzbek sculpture, the monumental and easel sculpture of Uzbekistan, and the general image of Uzbek women.

Keywords: Uzbek sculpture, female image, national ideology, geometric character

Kirish:

Hozirgi vaqtda O'zbekistonning hamma hududlarida shahar ko'chalari, bog' va xiyobonlarini bezatib turgan haykaltaroshlik asarlariga ko'zimiz tushadi. San'atning tasviriy ifoda turi bo'lgan haykaltaroshlik mustaqillikga erishganimizdan keyin shahar markazlarida o'rnatilgan siyosiy ma'naviy, milliy mafkuramizni tarannum qiluvchi monumental asarlar sifatida maydonga keldi.

Xotira maydonida o'rnatilgan "Motamsaro ona" haykali, Ikkinchi jahon urushida front orti mehnatkashi, farzandlaridan ayrilgan, sabr va matonat ramzi sifatida g'amgin o'zbek ayoli kompozitsiyasi, shuningdek Mustaqillik maydoni markazida o'rnatilgan yosh va "Baxtiyor ona" haykali. Ikki ayolning bir hududda bo'lishi, O'zbekistonning "O'tmish va kelajagini bir vaqtda va makonda namoyon etgandek.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Yangi umidlari maqsadlarini baxtiyor onaning bag'ridagi go'dak orqali ifoda qioinganligini ko'rishimiz mumkin. Haykaltaroshlar loydan tashqari metall, yog'ochdan ham keng foydalana boshladilar. Endilikda erkaklar haykali asta-sekin

ayollar haykaliga qaraganda ko'proq yaratildi. Ko'plab geometrik xarakterdagi naqshlar ishlandi. Ibtidoiy jamoa rassomi tasviriy san'atda murakkab his-tuyg'ularni ham tasvirlashga intildi.

Sharqiy Yevropa va Osiyo yerlaridagi bronza asri madaniyati eng dastlab metall serob bo'lgan yerlarda ravnaq topdi. Inson tafakkurining shakllanishi natijasida paydo bo'lgan va foydalanilgan mehnat qurollari ish samaradorligining oshishiga imkon berdi. Bu o'z navbatida san'at va madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi, uning keyingi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi.

N.Kudryavseva ishlaridan eng qiziqarli jihati shundaki, Toshkent shahar ijroiya qo'mitasining raisi D.Abidova portreti, "Yosh o'zbek kishisining boshi" va "O'zbek bola" portretlari. Abidova portretida o'zbek ayolining xarakter va xususiyatlari aks ettirilgan eskilik sarqitlariga nafrat, ehtiyotkorlik, qat'iylik, sabrlilik, his-hayajon ularga xos jihatlar edi. Ular o'zlarining tashqi ko'rinishi oddiyligi va soddaligi bilan ajralib turgan. Bu portretlarga qarab, muallif tomoshabinga 1917-yil voqealari bilan ichkaridagi qorong'ilikdan oyoqqa turgan, davlatni boshqarish uchun tayyor bir o'zbek ayolining takrorlanmas aniq xislatlarini yetkazib berganini sezamiz.

Natijalar:

Abidova yuzida va qo'llarining harakatida suhbatdoshlariga bo'lgan e'tibor va diqqat ko'rinadi. D.Abidova portreti - O'zbekiston haykaltaroshligidagi yangi o'zbek ayoli obrazining muvaffaqiyatli tasvirlanishi edi. Kudryavseva o'zining a'lo darajadagi portretchi-haykaltaroshligini gipsli byust "Yosh o'zbek kishisining boshi" da namoyon etdi. Noma'lum yigitning jiddiy, qahrli yuz ifodasi hali yuqori kuchga ega ekanligini, kuch-quvvatga to'laligini bildiradi. Bu asarni ko'ra turib odamning jonli nafas olayotganini his qilgandek bo'lasiz.

Muhokama:

O'zbekiston monumental va dastgohli haykaltaroshligi rivojiga muhim hissa qo'shgan haykaltaroshlardan yana biri V.Klevantsevdir. U portret janrida va kompozitsiyali keramikada muvaffaqiyatli ishladi. Muallif ayniqsa janrli va loydan bo'rttirib ishlangan haykallarni yaratgan. 1967-yilda muallif Marg'ilon shahri uchun betondan quyilgan aktrisa Nurxon haykalini yaratdi, bu ayol inqilob dushmanlari tarafidan 1920-yillarda o'ldirilgan. Bu haykaldagi figuralarning erkin harakatida, ko'ylakning burmalari dinamik ritmida o'zbek ayolining ozodlikka chiqish g'oyasi gavdalangan. Bu g'oya ayniqsa haykalning profil ko'rinishida qabul qilinadi.

Jo'ldasbek Qoraqalpog'iston xalq ustalariga shogird tushadi, u bir necha muddat usta Said Niyoz xonadonida yashab, musiqa asboblari tayyorlash sirlarini o'rganadi. J.Quttimurodovning san'atga munosabati estetik didi ideali uning dastlabki asarlaridayoq paydo bo'lgandi. U yaratgan qizlar va ayollar obrazlarida ramziy ma'no mujassamlashgan bo'lib, bu obrazlar mahalli tabiat manzaralari bilan uyg'unlashib ketgan.

Uning tasavvurini epik hikoyatlardagi qahramonlar hayajonga soladi. U yog'ochdan o'yib ishlagan qizlarning boshlari hamisha individual. Haykaltarosh har safar chehralar uyg'unligini namoyish etish uchun yangicha usul qidiradi. 1970-yili haykaltarosh "Nihol" nomli asarini nihoyasiga yetkazadi. Bu - Quttimurodov ijodida yalang'och ayol qiyofasini berishda ilk ijodiy tajriba edi.

J.Quttimurodovni qizlar va ayollar go'zalligi kuychisi deyish mumkin. Erkak kishilar obrazi uning ijodida ayollar obraziga nisbatan kam uchraydi. Quttimurodov naturadan ishlaydi. Lekin o'zining sevimli ustozlaridan biri Chingiz Axmarovga o'xshab, naturaning o'zini doimiy kuzatadi va o'rganadi. Ana shu kuzatishlar uning asarlarida o'z samarasini beradi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, haykal o'zining mutanosibli, chehrasi, gullab-yashnagan yoshlik onlarining betakrorligini to'la-to'kis ko'rsata olishi bilan diqqatni jalb etadi. Obraz go'yo osmon sari, quyosh sari, nur sari talpinayotgandek tuyuladi. Haykaltarosh ayollarning bundan keyin yaratgan obrazlarida ham go'zallik va ulug'vorlik tuyg'usini uyg'unlikda talqin qiladi. 1970-yillarda haykaltarosh katta muvaffaqiyatga erishdi, u xalq e'tiboriga sazovor bo'ldi.

San'atga fidoyilik va jamoatchilikning hurmati undan talabchanlik bilan ijodiy izlanishlarni muntazam davom ettirishni taqozo qilardi. Ana shu yillar davomida Quttimurodov san'at haqidagi tushunchalarini muttasil kengaytirib bordi: Toshkent, Samarqand, Moskva, Boku shaharlarida bo'ldi, o'ziga yaqin san'atkorlar bilan bo'lgan muloqotlarda uning badiiy-estetik qarashlari boyidi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Po'latov. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San'atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent - 2007.
2. Taktash R.X. Haykaltarosh Azamat Xotamov. \\\ Sovet O'zbekistoni san'ati. - Toshkent - 2000.
3. Ahmedova N.R. Haykaltarosh anglagan haqiqat. \\\ SAN'AT. - Toshkent. 2015.
4. Akilova K.B. O'zbekiston haykaltaroshligi 1991 - 2006 \\\ O'zbekiston haykaltaroshligi 1991-2006. Toshkent, 2006.
5. Rahimov. J. San'atga aylangan lahzalar. \\\ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2003.